

GHAFUR GHULAM'S WORK AND POETICS

Jurayeva Mohlaroyim Elmurodjon Qizi

Tashkent Law University

Step 2 Student

Annotatsiya:

Well-known Uzbek writer. In the poetry and prose of Gafur Gulam, the history of the Uzbek people finds its artistic expression. The author's work includes colorful poems, songs, epics, poems, stories, short stories. Gafur Gulam's post-war work has played an invaluable role in the development of Uzbek literature.

Kalit So'Zlar:

Ghafur Ghulam, prose, landscape painting, "Girl", "Socks", stories, plot, character

G'afur G'ulom butun umri davomida ko'pdan ko'p she'rlar, dostonlar yozdi. Sho'ro siyosati va mafkurasi tasirida el-yurtni yuksak ko'tarinkilik ruhida yashash va mehnat qilishga chorladi. Yaxshilik, ezgulik, birodarlik, do'stlikni ulug'ladi. Ulug' maqsad va fikr yo'lida xalqni, ommani safarbarlikka da'vat qildi. Kelajakda katta umidlar bilan qarashga undadi. Bular uning asarlariga xos bo'lgan muhim xususiyatlardir. Mana shu xususiyatlarni badiiy tarannum etishda lirik qahramonning chuqur o'y-mushohadalari-yu, uning donishmandligidan tortib, shu donishmandlikni namoyon etuvchi obrazlar vositasidagi rang-baranglik, serqatlamlik, ko'p ma'nolilik, purhikmatlilik, bir so'z bilan aytganda, falsafiylik shoir ijodining muhim belgisi sifatida namoyon bo'ladi.

G'afur G'ulom 20-yillardagi she'rlarida asosiy e'tiborini yangi jamiyatni qaror topib kelayotgan yangicha munosabatlarini, talablarini kuylashga, eskilik deb baholanayotgan tushunchalarini tanqid etishga qaratdi. Bu davr she'rlarida badiiylikdan ko'ra bayonchilik, ehtirozdan ko'ra e'tirof ustunlik qiluvchi she'rlar ham talaygina edi. Xalq va Davlat hayotini aks ettirish 30-yillardan shoir asarlarining yetakchi xususiyatlariga aylana bordi. Mazkur xususiyat, ayniqsa, «Turksib yo'llarida» she'ri va «Ko'kan» dostonida yaqqol ko'zga tashlandi. «Ko'kan» dostoni 20-yillar oxiri, 30-yillar boshlaridagi davr va xalq hayotini badiiy aks ettirdi. Ayni vaqtda shu tamoyilni kuchaytirish va mustahkamlashda muhim mafkuraviy rol o'ynaydi. To'g'ri, jamoa xo'jaligiga o'tish va o'tkazishda majbur qilish, shuningdek, ko'pdan ko'p o'rtahol xonadonlarning xonavayron bo'lishi ham ro'y berdi. Lekin bu kamchilik, xato va cheklanishlar bilan bir vaqtda, jamoa xo'jaligi o'zbek dehqoni muayyan qatlamining taqdirida, uning oyoqqa turishida, xo'jaligining tiklanishida ijobiy rol ham o'ynaganini e'tiborga olsak, doston o'zbek dehqoni tafakkuri, dunyoqarashi va yashash tarzidagi keskin o'zgarishlarning badiiy hujjati tarzida ahamiyatlidir.

Epik asarlar (hikoya, qissa va roman) larni janrga ajratish chog'ida yuqoridagi har uchala tamoyilni yaxlitlikda olib qarash lozim. Ma'lumki, G'afur G'ulom bir necha qissalar yozgan bo'lsa ham, ular o'z ifoda tarzi, bayon usuli jihatidan bir-biriga o'xshamaydi. Masalan: «Netay» (1931) asari lirik-publitsistik yo'sinda uchinchi shaxs tilidan hikoya qilinadi. «Tirilgan murda» (1934) satirik yo'sinda bo'lib, qahramonning esdalik daftari shaklida yozilgan. «Yodgor» (1936) esa, yumoristik ohangda bo'lib, voqeani bosh qahramonning o'zi hikoya qiladi. Unda «Ming bir kecha»ga o'xshagan ertaklarga xos bayon va qoliplash (hikoya ichida hikoya qilish) yo'lidan foydalaniladi. «Shum bola» (1936, kengaytirilgan nusxasi, 1963) qissasi sarguzasht syujet asosiga qurilgan. Voqeani qahramonning o'zi aytadi va asar hajv-hazil uslubida bitiladi. Shunga qaramasdan, yuqoridagi qissalarning barchasini bir-biri bilan jips birlashtiradigan o'q tomir bor. Bu – insonning odamiyligi, mehr-shafqati, pok qalbi va mehnatsevarligi, chidam-bardoshlilikini ochish, shu insonni himoya etish, uning orzu-armoni uchun kurashish g'oyasidir.

Badiiy asarning mazmuni u yoxud bu shaklda ifodalanadi. Zotan, shakl mazmunning tashqi ko'inishi o'laroq, asarga go'zallik bag'ishlaydi. Mazmun va shakl mutanosibliigi mukammallik garovidir. Peyzaj tasviri ham badiiy asarning tarkibiy uzvlaridan biri bo'lgan shakl hodisasi bo'lib, mazmun ifodasiga xizmat qiladi. Demak, G'afur G'ulomning tabiatga munosabatini, uning asarlaridagi tabiat tasvirini o'rganish ijodkor mahoratining ayrim qirralarini yoritishga ham imkon beradi. Peyzaj yaratish san'atining ba'zi jihatlari milliy adabiyotshunoslikda Azizxon Qayumov, Yoqubjon Ishoqov, Mashhura Sultonova, Fayzulla Nabiev, Avtondil Erkinov, Normurod Yo'ldoshev tadqiqotlarida muayyan so'z san'atkorining mahorati bilan bog'liq tarzda yoritilgan. G'afur G'ulom nasrida peyzaj tasviri masalasi ancha serqirradir. Biz mazkur muammoga BMI doirasida nosirning «Qizaloq» (1928), «Puch umidlar» (1928), «Jo'rabo'za» (1929), «Soyalar» (1930), "Cho'tir xotinning tolei"(1933) hikoyalari misolida to'xtalishga harakat qildik.

G'afur G'ulom shaxsiyati va ijodiy merosida xalq ijodi ta'sirining nihoyatda xilma-xil ko'inishlarini topish mumkin: Masalan: «Afandi o'lmaydigan bo'ldi» hajviyasida folklor asarlari qayta ishlangan. «Hasan Kayfiy» hikoyasi folklorga o'xshatma tarzida yozilgan. «Tirilgan murda» qissasi folklor motivi, xalq ijodi obrazlariga xos xususiyatlar asosida bayon qilingan. Mulla Mamajon xarakteri mohiyati shu negizda tipiklashtirilgan. «Shum bola» qissasidagi sarguzasht syujet turi va kompozitsiya folklorga borib tutashadi. Yozuvchi «Uch yolg'ondan qirq yolg'on» ertagiga o'xshagan g'oyat jozibali yolg'on to'qib, juda qiziq kulgili vaziyat-holat yaratgan. G'afur G'ulomning «Shum bola» qissasida rivoyaning personaj tilidan hikoya qilish usulini qo'llashi o'ziga xos badiiy samara berdi. Bordiyu, qissada rivoya yozuvchi tilidan olib borilganida, undagi ayrim epizodlar o'quvchida shubha uyg'otishi, ishonchsizlik qo'zg'ashi mumkin edi. Pesonaj – shum bola tilidan olib borilganida esa, biroz orttirilgandek ko'ringan o'rinlar hikoyachining fe'liga yo'yiladi. Uning xarakter xususiyatlarini yorqinroq ko'rsatishga xizmat qiladi. «Yodgor» qissasidagi kompozitsion qoliplash usuli ham folkloridan oziqlanadi. Adib qissada latifa, dostonchilik, qiziqchilikka xos xususiyatlar, shuningdek, satira va yumordan ham ijodiy o'rgangan.

G'afur G'ulomning hikoyanavisligi «Jo'rabo'za», «Yigit» (1931), «Kulgi hikoyalar» (1932) kabi to'plamlarida yorqin namoyon bo'ldi. Uning dastlabki asarlarida o'sha davr o'zbek hikoyachiligidagi tavsifchilik publitsistik tadqiqqa ruju qo'yish, konfliktni yuridik tarzda hal etishga moyillik kabi kamchiliklar ko'zga tashlanadi («Arkning yemirilishi», «Ikki janggoh»). ko'pgina satirik hikoyalarda syujetning qiziqarli bo'lishiga, va diqqatni qaratsa, boshqalarida xarakterlar o'rtasidagi keskin to'qnashuvlarni ko'rsatadi va ularning ruhiy dunyosini ochadi. «Hiylai shar'iy» (1930) hikoyasi latifani eslatadi, unda o'zi aytganidek, «kuldirib yig'latadi, yig'latib kuldiradi». «Yigit» (1929) hikoyasida muqaddas muhabbat tuyg'usi bilan o'ynagan yigitni chiroyli usulda fosh etadi. Qoloqlikni kulgi qiluvchi «Kim aybdor» (1932), «To'rt xangoma» (1941) yumoristik hikoyalari ham latifanamodir. «To'rt hangoma»dagi ikkinchi hangomani eslaylik. Qovulnazar pulini omonat kassaga qo'ymay, bir parcha guldor satinga o'rab xazonning ichiga berkitib qo'yadi. Bir kuni sigirining og'zida o'sha tugunchani ko'rib qoladi. Sigir yutishga urinadi, Qovulnazar sug'urib olish uchun chiranadi, oxiri sigir yutib yuboradi. Qovulnazar hayron, birov sigirni suyib qornidan pulingni ol, desa, boshqasi kavsh qaytarishini kut, ehtimol, chiqarib yuborar, Deb maslahat beradi. Birovning gapi bilan sigirni bozorga olib boradi va jig'ildonida uch yarim ming sulkavoy ham bor, deb ikki barobar ortiq narx qo'yib sotishga urinadi. ko'rinadiki, yozuvchi qahramonni kulgili vaziyatga tushirib qo'yib, kulgi yaratadi va uning qoloqligidan kuladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш.М: Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби. // Халқ сўзи, – 2017 йил 16 июн
2. Абдуллаев Ҳ. Фафур Ғулум ва Хоразм. – Т: 2003
3. Амилова М. Ўзбек совет адабиётида фольклор анъаналари. – Т: Фан, 1990
4. Ёқубов Ҳ. Фафур Ғулум (хаёти ва ижоди). – Т: Бадий адабиёт, 1959